

ZARDUSHTIYLIK DINI VA AVESTONING O'RTA OSIYO
TARIXIDAGI AHAMIYATI

Olimov Boburjon Baxromjon o'gli

Qo'qon unversteti Andijon filiali

Tarix yonalishi 1-kurs talabasi

Email:boburjono489@gmail.com

Tel+998 33 095 95 81

Annatsiya: *Ushbu maqolada Zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi "Avesto"ning yaratilish tarixi, asosiy g'oyalari hamda Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va ma'naviy hayotidagi o'rni haqida so'z yuritiladi. "Avesto"da ilgari surilgan ezgulik, adolat, insonparvarlik va tabiatni asrash kabi g'oyalar hozirgi davr uchun ham dolzarb ekanligi ta'kidlanadi. Maqola diniy-falsafiy me'ros sifatida "Avesto"ning tarixiy va madaniy ahamiyatini yoritishga qaratilgan.*

Kalit sozlari: *Zardushtiylik dini, Avesto, ezgulik, adolat, insonparvarlik, tabiatni asrash, qadimiy manbalar, ma'naviyat, madaniyat, falsafa*

Аннотация: *В данной статье рассматривается зороастрийская религия и её священная книга — «Авеста», её происхождение, основные идеи и значение в духовной жизни народов Средней Азии. Подчеркивается, что идеи добра, справедливости, гуманизма и защиты природы, изложенные в «Авесте», остаются актуальными и в наше время. Статья направлена на раскрытие исторического, культурного и философского значения «Авесты» как духовного наследия человечества.*

Ключевые слова: *Зороастризм, Авеста, доброта, справедливость, гуманизм, охрана природы, древние источники, духовность, культура, философия.*

Abstract: *This article discusses the Zoroastrian religion and its sacred book "Avesta," focusing on its origin, main ideas, and its role in the spiritual life of the peoples of Central Asia. The study emphasizes that the concepts of goodness, justice, humanism, and environmental protection expressed in the "Avesta" remain relevant today. The article aims to highlight the historical, cultural, and philosophical significance of the "Avesta" as a spiritual and intellectual heritage.*

Keywords: *Zoroastrianism, Avesta, goodness, justice, humanism, environmental protection, ancient sources, spirituality, culture, philosophy.*

Zardushtiylik dini insoniyat tarixidagi eng qadimiy yakkaxudolik e'tiqodlaridan biridir. Bu din miloddan avvalgi II ming yillik oxiri – I ming yillik boshlarida O'rta Osiyo hududlarida, ya'ni hozirgi Xorazm, Baqtriya yoki So'g'diyona atrofida paydo bo'lgan deb hisoblanadi.

Dinning asoschisi Zardusht (Zaratushtra) bo'lib, u o'z xalqini ezgulik, adolat va halollikka chaqirgan. Zardushtiylikning asosiy g'oyasi — ezgulik kuchlari (Ahura

Mazda) bilan yovuzlik kuchlari (Ahriman) o'rtasidagi abadiy kurashdir. Inson ana shu kurashda ezgulik tarafida turishi kerak, degan fikr ilgari suriladi.

Zardushtiylikning shiori quyidagicha, ya'ni, "Yaxshi o'ylash, yaxshi so'zlash, yaxshi ish qilish". Bu g'oya insonni halollikka, mehnatsevarlikka va odamlarga yaxshilik qilishga da'vat etadi.

Ahamoniylar davrida (mil.avv. VI–IV asrlar) Zardushtiylik Fors imperiyasining davlat dini bo'lgan. Bu esa uning qadimiy dunyoda keng tarqalishiga sabab bo'lgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" deb ataladi. "Avesto" so'zi "bilim", "ta'limot" ma'nosini bildiradi. Dastlab u og'zaki tarzda avloddan-avlodga o'tgan, keyinchalik yozma shaklga keltirilgan.

Avesto qadimgi eroniy tillardan birida yozilgan. U bir necha asosiy qismlardan iborat:

Yasna — marosimlarda o'qiladigan madhiyalar va Zardushtning g'oyalarini o'z ichiga olgan qism.

Vispered — xudolarga bag'ishlangan qo'shimcha duolar.

Vendidad — diniy qonun-qoidalar, poklik va inson axloqiga oid ta'limot.

Yashtlar — turli xudolar va tabiat kuchlariga bag'ishlangan madhiyalar.

Avesto dastlab 21 kitobdan iborat bo'lgan, ammo bizgacha faqat ayrim qismlari to'liq saqlanib qolgan. Uni ilk bor Ahamoniylar davrida to'plab yozilgan, Sosoniylar davrida (mil. III–VII asrlar) esa mukammallashtirilgan.

Avesto nafaqat diniy kitob, balki O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganish uchun juda muhim manba hisoblanadi. Unda qadimgi xalqlarning urf-odatlarini, dehqonchilik va chorvachilik hayoti, tabiatga bo'lgan munosabati, hatto qadimgi shahar va daryolarning nomlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Avestoda Xorazm, So'g'd, Baqtriya, Marg'iyona kabi o'lka nomlari tilga olinadi. Bu joylar bugungi kunda O'zbekiston, Tojikiston, Afg'oniston va Turkmaniston hududlariga to'g'ri keladi. Bu esa Zardushtiylik dini va Avestoning ildizlari aynan O'rta Osiyo bilan bog'liq ekanini isbotlaydi.

Avestoda mehnatsevarlik, tabiatni asrash, suv va olovni muqaddas bilish, hayvonlarga e'tiborli bo'lish kabi qadriyatlar targ'ib etiladi. Bu qadriyatlar hozirgi zamon ekologik va axloqiy qarashlarga ham yaqin. Bugungi kunda Avesto O'zbekiston va Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda eng qadimiy yozma manbalardan biri sifatida qadrlanadi. U bizning xalqimizning qadimiy madaniyati, e'tiqodi va dunyoqarashini yoritadi.

Xulosa qilib aytganda, Zardushtiylik dini O'rta Osiyoda paydo bo'lgan eng qadimiy diniy-falsafiy ta'limotlardan biridir. Uning asosiy manbasi bo'lgan "Avesto" nafaqat diniy asar, balki tarix, madaniyat, axloq va qadriyatlar haqida bebaho bilimlar manbaidir. Avesto orqali biz ajdodlarimizning dunyoqarashi, yashash tarzi va tabiatga bo'lgan hurmatini chuqur anglashimiz mumkin. Shu sababli Avesto — O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviy merosi va madaniy boyligi sifatida bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.



1. Turg'unov M. T. «Avesto» va inson huquqlari. 2021.
2. Narzulla Jo'rayev. «Avesto» mo'jizasi. 2013
3. Ishoqov M. O'zbek tili va adabiyoti junali. 1999

